



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2025-yil "13" fevral

03-14-421 -son

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vaziri, Toshkent shahri va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshliqlariga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2024-yil 30-yanvardagi **PF-16-son** Farmoni **1-ilovasining 10-bandiga** ko'ra, 2025-yil 1-fevraldan boshlab Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi tizimidagi umumiyoq o'rta ta'lim muassasalarida "**O'zbek tili (davlat tili)**" fani bo'yicha Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan tegishli darajadagi **o'zbek tili va adabiyoti sertifikatiga** ega bo'lgan va ushbu fandan dars beruvchi pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan **50 foiz** miqdorida har oylik qo'shimcha ustama to'lanishi belgilangan.

Ma'lumot uchun: amalda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 11-maydag'i PF-134-son Farmonini 9-bandiga binoan qabul qilingan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligining "Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" (2024-yil 29-mayda Adliya vazirligidan 3515-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) qaroriga muvofiq Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida ustama to'lab kelinmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, 2025-yil 1-fevraldan boshlab Bilim va malakanı baholash agentligi tomonidan berilgan Vazirlikning Yagona elektron tizimida (ERP) tasdiqlangan milliy sertifikatga ega "O'zbek tili (davlat tili)" fani pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida har oylik qo'shimcha ustama o'rnatilgan tartibda sertifikat amal qilish davri davomida to'lanishini ta'minlashingiz va nazoratga olishingiz so'raladi.

Vazir o'rinnbosari

Ijrochi: S.Raximboyev
Tel.: 55 503-74-00 (9060)



S.Radjabov

info@uzedu.uz



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'lifi vazirligi



www.uzedu.uz



uzedu



uzedu



uzedu.uz